

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN GIGIYENA
VA SANITARIYA GIGIYENA TEKSHIRISH USULLARI FANIDAN
MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN GIGIYENA VA SANITARIYA GIGIYENA TEKSHIRISH USULLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Gigiyena va sanitariya gigiyena tekshirish usullari fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Gigiyena va sanitariya gigiyena tekshirish usullari

1. Turar joylar va jamoat binolari gigiyenasi. Turar joylarga qo‘yiladigan sanitariya gigiyenik talablar;
2. Havoli muhiti gigiyenasi. Atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalar va atmosfera havosini muhofaza qilish;
3. Ovqatlanish gigiyenasi. Oziq ovqat mahsulotlarningning sifatiga sanitariya gigiyenik baho berish;
4. Mehnat gigiyenasi fani vazifalari, predmeti.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Turar joylar va jamoat binolari gigiyenasi. Turar joylarga qo'yiladigan sanitariya gigiyenik talablar.	Aholi salomatligini saqlashda turar joylarning ahamiyatini, turar joylar yer maydonini tanlashda shahar zonalarining sanitariya-gigiyenik ahamiyatini, turar joylarni qurish va rejalashtirishga sanitariya-gigiyenik talablarni, turar joylarni tabiiy va sun'iy yoritish (yorug'lik koeffitsiyenti, TYoK xona chuqurligi, xonalar yoritilganligini Vatt usulida aniqlash)ni, davolash profilaktika muassasalarini (qishloq vrachlik punkti) qurishni planlashtirishda yerni relyefi, shamollar yo'nalishi, yer osti suvlari chuqurligini hisobga olish kerakligini, turar joylarni, jamoat binolarini, mahalliy va markazlashtirilgan isitish, shamollatish va shovqindan saqlashga qo'yiladigan sanitariya-gigiyenik talablarni bilishi	1 ta
2	Havoli muhiti gigiyenasi. Atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalar va atmosfera havosini muhofaza qilish	Havoning chang, tutundan ifloslanishi, bakteriyalardan, zaharli kimyoviy moddalardan, radioaktiv moddalardan ifloslanishini, havo tomchi infeksiyon kasalliklar tarqalishida havoning rolini, atmosfera havosini muhofaza qilishning sanitariya-gigiyenik chora tadbirlarini, quyosh radiatsiyasini, uning inson a'zolariga fiziologik ta'siri, atmosferaning past va baland bosimidagi o'zgarishlar va ularning inson a'zolariga ta'siri, tog' kasalligi, Kesson kasalligi, ularning profilaktikasi haqida bilimlarga ega bo'lishi kerak.	2 ta
3	Ovqatlanish gigiyenasi. Oziq ovqat mahsulotlarining sifatiga sanitariya gigiyenik baho berish.	Ovqat kaloriyaligiga sanitariya-gigiyenik baho berish, asosiy ovqat mahsulotlari: oqsillar, yog'lar, uglevodlar, karbon suvlari, vitaminlar, mineral tuzlar va ularning inson a'zolariga fiziologik ahamiyatini bilish, ko'payib borayotgan kamqonlik, buqoq, jinsiy zaiflik, jismoniy zaiflik kelib chiqishida ovqatlanishning rolini, tayyor ovqat mahsulotlarini vitaminlashtirish va aminokislotalar bilan boyitishni, ovqat mahsulotlarini konservatsiya qilish usullarini, go'sht va go'sht mahsulotlariga sanitariya-gigiyenik baho berish, sut va sut mahsulotlariga, tuxumga,	17 ta

		don va don mahsulotlariga sanitariya-gigiyenik baho berish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	
4	Mehnat gigiyenasi fani vazifalari, predmeti.	Mehnat gigiyenasi fani vazifalari, predmeti. Mehnat gigiyenasi faniga gigiyenik ta'rif. Mehnat turlari. Ishlab chiqarish zararlari (chang, shovqin, tebranish, nomuvofiq mikroiklim, kimyoviy moddalar), ularga gigiyenik ta'rif. Ishchi muhitda ularni aniqlash va gigiyenik baho berish haqidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.	20

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig‘ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me‘yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat‘iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Azizov M.A. «Umumiy gigiyena va ekologiya» Toshkent, «Ilm ziyo», 2014 yil.

2. Esonturdiyev S.S, Qarshiboyeva M.E, «Gigiyena va sanitariya tekshirishlar texnikasi» Toshkent, «Ilm ziyo», 2007 yil.

3. Do‘shanov D.A, Iskandarova Sh.T, Solixo‘jayev S.S. «Umumiy gigiyena» Toshkent, «Ilm ziyo», 2001 yil.

4. Salomova F.I. va boshqalar. – Gigiyena, tibbiy ekologiya. 1-qism o‘quv qo‘llanma 2023 yil

5. Salomova F.I. va boshqalar. – Gigiyena. Tibbiy ekologiya. 2-qism o‘quv qo‘llanma 2024 y.

6. Salomova F.I. va boshqalar. – Gigiyena. Tibbiy ekologiya o‘quv darslik 2020 y.

7. Glinenko V.M. va boshqalar. – Гигиена и экология человека 2010 Москва.

8. 0069-24 son SanMvaQ-2024

9. “Mehnat gigiyenasi” K.Gardiner va boshqalar.- 2008.

10. “Kommunal gigiyena” A.M.Boltanskiy. – 2018.

11. “Gigiyena” K.S.Petrov darslik. 2019.

**Eslatma:* test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.